

ISH O`RINLARINI YARATISH - IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA`MINLOVCHI MUHIM VOSITADIR

Amirov Temur Mashrab o`g`li
SamISI "Iqtisodiyot nazariyasi"
kafedrasi asisstenti

Annotatsiya: maqolada "Yashil iqtisodiyot"ning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sifatida kambag'allikni tugatish va barqaror rivojlanish, shuningdek uning siyosatini shakllantirishning turli variantlarini ta'minlash ko`rib chiqilgan. Ijtimoiy integratsiya, insonning farovonligini oshirish va barcha uchun bandlik va munosib mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratish orqali kambag'allikni yo`qotishga, shuningdek barqaror iqtisodiy o`sishga yordam berish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so`zlar: yashil iqtisodiyot, yashil ish o`rinlari, barqaror iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, kambag'allik, bandlik, yashil energetika.

Ish o`rinlari raqobatbardosh korxonalarni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish va bandlikni kengaytirishga qaratilgan iqtisodiyotni tiklash kabi uch tomonlama foyda olish imkoniyatini beradi.

Butun dunyoda atrofimizni o`rab turgan tabiiy muhitning holati va "yashil" iqtisodiyotning tatbiq qilinishi bo`yicha ma'lum bir xavotirlar mavjud. O`zbekiston ham ushbu holatga loqayd munosabatda emas. O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligi ostida "2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi" va "Parij bitimi", shuningdek 2019-2030 yillar davrida O`zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o`tish strategiyasi doirasida samarali va keng miqyosli islohotlar o`tkazilib, ularning samarasi mamlakatimiz va jamiyatimiz hayotida namoyon bo`lmoqda.

Mamlakatimiz Prezidentining "Yashil o`sish va global maqsadlar yo`lida hamkorlik - 2030" (P4G) xalqaro sammitida so`zlagan nutqi yuqoridagi maqsadlarning yaqqol misoli bo`lib, ushbu ma`ruzasida u iqlim o`zgarishi, uning oqibatlarini engib o`tish, tabiatning "yashil" tiklanishi va uning uglerodli

neytralligini ta'minlash bo'yicha xavotirlarini, shuningdek BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Iqlim bo'yicha Parij bitimini bajarish haqida bayon qilgan. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining ijobiy tendensiyalari insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan tengsizlikning kuchayishi, gender tengsizlikning saqlanib qolishi, ishsizlik, ijtimoiy adolatsizlik, atrof-muhit holatining yomonlashishi va vaqti-vaqti bilan ro'y beradigan iqtisodiy, moliyaviy, energetik va oziq-ovqat inqirozlari bilan birgalikda kechishi jiddiy tashvishni keltirib chiqaradi.

Mintaqalarning iqtisodiy o'sishining yuqori sur'atlarini ta'minlash zaruriyati sharoitlarida, mavjud bo'lgan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy xavflarni bartaraf qilishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lgan "yashil" iqtisodiyotga o'tishni amalga oshirish asosida, hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotning ekologiyalashtirishdan juda manfaatdor bo'lib, shu tufayli "yashil" iqtisodiyot tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Tabiiy muhitning ifloslanishida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar asosiy javobgar bo'lib hisoblanadi. Ularda dunyo aholisining taxminan 20 foizi istiqomat qiladi. Ammo o'z fuqarolari farovonligining yuqori darajasini saqlab qolish uchun davlatlar dunyoda ishlab chiqarilayotgan energiyaning 70 foizi, metallning 75 foizi va yog'ochning 85 foizini iste'mol qilishmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ulushiga jahondagi ifloslanishning 65% dan ortig'i, shu jumladan, oxirgi yigirma yilda kurramiz atmosferasiga tashlangan is gazining 2/3 qismi to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti ko'p tomonlama va ko'p tarmoqli xususiyatga ega bo'lib, unda bir vaqtning o'zida ko'mir, tog'-kon, norudali sanoat, metallurgiya, kimyo, neft va gaz qazib chiqarish va ularni qayta ishlash, mudofaa sanoati, shuningdek kuchli agrosanoat kompleksi mavjud. Shuning uchun respublikamizda xodimlarning ijtimoiy himoyasi va mehnat muhofazasi, ularni kasbda uchraydigan xavflardan ta'sirchan himoya qilish mexanizmlarini shakllantirish tobora dolzarb tus olmoqda. Ushbu sharoitlarda mehnat faoliyati jarayonida xodimlarning hayoti va sog'ligini saqlashga yordam beruvchi xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

2030 yilgacha bo'lgan davrda Respublikaning iqtisodiy rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Iqtisodiy rivojlanish maqsadlari 2030

yilgacha milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish asosida YAIM hajmini kamida ikki baravar ko'paytirishni nazarda tutadi, bunga birinchi navbatda samarali bandlikni oshirish hisobiga erishiladi. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun mehnat muhofazasi va atrof-muhit himoyasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lishi zarur. Xavfsiz va sog'lom ishlab chiqarish muhiti va atrof-muhit muhofazasi tanganing ikki tomonidir. Ishlab chiqarish jarayonlarining salbiy ta'siridan atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda xodimlar, ularning oilalari va umuman jamiyat sog'lig'ini muhofaza qilish masalalari hisobga olinadi. "Yashil" ish o'rinlari insoniyat yigirma birinchi asrning ikkita muhim muammosi bilan uchrashishga tayyor bo'ladi, degan umidni beradi:

Zamonaviy dunyoda ekologik barqaror iqtisodiyotga o'tish "yashil" ish o'rinlarining ko'payishiga olib keldi – bu iqtisodiyot va ishlab chiqarishni ko'klamzorashtirishda, ya'ni "yashil" rangga bo'yashda muhim rol o'ynaydigan yangi ish turlaridir. Bugungi kunda chiqindilarni qayta ishlashdan tortib qurilish va tashishgacha bo'lgan iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida "yashil" ish o'rinlari yaratildi. Bunday innovatsiyalar sezilarli darajada xomashyo, suv va energiya sarfini kamaytirish mumkin, iqtisodiyot tarkibida uglerod bo'lgan moddalardan xalos bo'ladi va issiqxona gaz chiqindilari darajasi pasayib, ifloslanishning barcha shakllari kamayadi. Millionlab "yashil" ish o'rinlari allaqachon yaratilgan bo'lib, qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan bog'liq sohalarda ularning paydo bo'lish sur'ati ayniqsa tez o'sib bormoqda.

O'tkazilgan tahlillar iqlim o'zgarishi sharoitida samarali, resurslarni tejaydigan va ekologik toza iqtisodiyotni ta'minlashda o'zaro bog'liq muammolar va ehtiyojlar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, quyidagi muammolar yashil iqtisodiyotga o'tishda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:- jadal sanoatlashtirish va aholi sonining o'sishi iqtisodiyotning resurslarga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirishi; atrof-muhitga salbiy antropogen ta'sirning va issiqxona gazlari chiqindilari o'sishining kuchayishi; yoqilg'i-energetika, neft va gaz kompaniyalari egalari foydadan voz kechmaslik maqsadida, "yashil iqtisodiyot" jarayonini to'xtatish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda; iqtisodiyotning energiya samaradorligining pastligi; tabiiy resurslarning noratsional iste'mol qilinishi; texnologiyalarning sekin yangilanayotgani; kichik biznes sub'ektlarining yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha innovatsion yechimlarni hayotga tatbiq etishdagi ishtirokining sustligi;

davlatning iqtisodiyotga aralashuvi; ishlab chiqarish xarajatlarining o`shishi; soliq yukining oshishi; ish joylarini qisqartirish; mahsulot va xizmatlar narxining oshishi.

Ushbu strategiyani amalga oshirishning muvaffaqiyati ko`p jihatdan oddiy fuqarolarga bog`liq. Har bir shaxs atrof-muhitni yaxshilash va kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslarni saqlashga yordam berishi jiddiy noqulaylik va moliyaviy xarajatlarga olib kelmaydi.

“Yashil” iqtisodiyot va ish o`rinlari yo`lidagi eng katta to`siq bo`lib, ustunlik qilayotgan va ko`p hollarda yanada daromadliroq bo`lib turgan biznes beqarorligi hisoblanadi. Korxonalar o`rtasida “yashil” texnologiyalar va biznes munosabatlarini targ`ib qilganlar orasida birinchi bo`lganlar endi tez pul qaytarish masalalari bo`yicha moliyaviy bozorlar tomonidan qo`llaniladigan bosimga qarshi urush olib borishga majbur va ular, ekologik va ijtimoiy xarajatlarni o`z ichiga olmaydigan, past narxlar bilan iste`molchilarni jalb qilgan raqobat kompaniyalariga qarshi turishlari zarurati paydo bo`lmoqda. Yaxshi malakali tadbirkorlar va malakali xodimlarsiz, texnologiyalar va vositalarga investitsiyalar kiritish, ulardan foydalanish mumkin emas yoki ulardan atrof-muhit uchun kutilgan iqtisodiy foyda olinmaydi. Mavjud ko`nikmalar bo`shlig`ini bartaraf etish va kelajakdagi ehtiyojlarni prognoz qilish bo`yicha sa`y-harakatlar yashil va kam uglerodli iqtisodiyotga o`tish uchun juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi PF-4947 sonli farmoni.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019-2030 yillar davrida O`zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o`tish strategiyasi”ni tasdiqlash to`g`risidagi PQ-4477 qarori.

3. <https://uza.uz/ru/posts/vystuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyoeva-na-vtorommezhdunarodnom-sammite-partnerstvo-radi->

[zelenogo-rosta-i-globalnyx-celey-2030-p4g_271629?q=%2Fposts%2Fvystuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyoeva-navtorom-mezhdunarodnom-sammite-partnerstvo-radi-zelenogo-rosta-i-globalnyx-celey-2030-p4g_271629](#)